

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI**



“TASDIQLAYMAN”
Qo‘qon davlat universiteti
rektori D.Sh. Xodjayeva
29-avgust 2025 yil

ANDROGOGIKA ASOSLARI

FAN DASTUR

Bilim sohasi:	100000 – Ta’lim
Ta’lim sohasi:	110000 – Ta’lim
Mutaxassisligi:	70110102-Pedagogika

Qo‘qon-2025

Fan/modul kodi AA2405		O‘quv yili 2026-2027	Semestr 4	ECTS - Kreditlar 5	
Fan/modul turi Tanlov		Ta’lim tili O‘zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi		Auditoriya mashg’ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	ANDROGOGIKA ASOSLARI		60	90	150
2.	I. Fanning mazmuni Fanning maqsadi – magistrnlarni andragogika nazariyasi hamda amaliyoti borasida bilimli, etuk malakaga ega bo’lishlarini ta’minlashdan iborat. Shuningdek andragogikaning predmeti, shakllanish tarixi, taraqqiyot metodlari, kasbiy pedagogik faoliyatda bolalar va kattalar ta’limini o’ziga xususiyatlari, kattalarni psixologik qo’llab-quvatlash, kattalar ta’limiga doir bilimlar majmuasini qo’lga kiritishdan iborat. Fanning asosiy vazifalari: bo‘ljak o‘qituvchilarni kelgusi kasbiy faoliyatlari uchun puxta nazariy asos yaratish, axborotlardan (jumladan internet tizimi)dan foydalanish, mutaxassislik fanlarini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llay olish, ilmiy tadqiqotlarga jal etish, pedagogik faoliyatga tayyorlash, o‘qituvchilik kasbining insonparvarlik ahamiyatini ochib berish. Fanning asosiy manbalari: 1. O’.M.Asqarova, M.A. Abdullaeva, M.Boltaeva “Andragogika” (o ’quv qo’llanma) Namangan-2014 2.Devid Kolb “Kattalarni o’qitish shakli” uslubiy qo’llanma.2014 yil. 3.S.Zmeyov va B.A.Drevyannikov. “Kattalarni o’qitishning asosiy tamoyillari” uslubiy qo’llanma.2016yil. 4.E.Foziyev, K.Mamedov, “Kasb psixologiyasi”, Toshkent, Sharq, 2003. Fanning dasturi Qozon federal universiteti dasturi asosida tayyorlangan. O‘qituvchi va talabalarning samarali birgalikdagi faoliyati. Amaliy topshiriqlarni amalga oshirish maqsad va vazifalarni, ta'lim jarayoni ishtirokchilari				

bilan pedagogik muloqot mazmunini aniqlash, shaxsiy yondashuv asosida turli shakllarda pedagogik jarayon sub'ektlarining o'zaro ta'sirini tashkil etish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Individual xususiyatlarni hisobga olgan holda, shuningdek, o'quv jarayoni sub'ektlari bilan o'zaro munosabatda bo'lish, o'qituvchining kommunikativ ko'nikmalarini, ta'lim jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar muammolarini psixologik-pedagogik diagnostika qilish metodikasini o'zlashtirish uchun asos bo'ladi. pedagogik o'zaro ta'sirda konstruktiv nizolarni hal qilish ko'nikmalari o'rganiladi.

Dasturda quyidagi asosiy jihatlar inobatga olingan:

Nazariy va amaliy yondashuv uyg'unligi –

O'qituvchining pedagogik faoliyat jarayonida o'quvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni malakali tashkil eta olishi bola shaxsining rivojlanishiga ta'sir qiladi. Pedagogik o'zaro ta'siri pedagogikaning asosiy tushunchalaridan biri va ta'limning ilmiy tamoyilidir. Nazariy va amaliy bilimlar integratsiyasi orqali erishgan yutuqlari yoki ta'lim sifatini yaxshilashga talabalariga nafaqat o'quv va tarbiyaviy faoliyatning shaxsiy ahamiyatini ta'minlash to'g'risida yaxlit tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi, balki amaliy kompetensiyalarni shakllantirishga ham xizmat qiladi, o'quv vazifalari majmuasini o'z ichiga oladi, ularning izchil va sifatli bajarilishi fanning asosiy maqsadlariga erishishni ta'minlaydi.

Xalqaro standartlarga muvofiqlik – Ushbu fanni o'qitayotgan Qozon federal universiteti Top 300 universitetlar standartlariga ega.

Tanqidiy fikrlash va tahlil ko'nikmalarini rivojlantirish – Kursni to'liqroq o'zlashtirish uchun mahalliy va xorijiy mualliflarning aloqa bo'yicha klassik va zamonaviy asarlariga alohida e'tibor berish, mustaqil ish uchun topshiriqlarni bajarish va yakuniy test topshiriqlarini bajarish uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish tavsiya etiladi.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

2.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. Andragogika fanining predmeti, maqsad va vazifalari.

Andragogika fani haqida umumiy tushuncha. Pedagogik andragogikaning predmeti, maqsad va vazifalari. Pedagogik andragogika fanining tadqiqot metodlari.

2-mavzu. Andragogikaning nazariy va amaliy rivojlanish tarixi.

Kattalarni o'qitish» amaliyoti va nazariyasida butun jaxon tajribalari, uning tarixiy bosqichlari. Jahon mamlakatlarida kattalar ta'limining rivojlanishi. Kechki maktablarning ochilishi.

3-mavzu. Andragogikaning asosiy tamoyillari.

Kattalarni o'qitishning asosiy tamoyillari: Mustaqil o'qitishning ustuvorligi. Birgalikda faoliyat tamoyili. Ta'lim oluvchilar tajribasiga tayanish tamoyili. Ta'limni individuallashtirish. Yangi bilimlarni o'zlashtirishga to'siq bo'ladigan eskirgan tajribalar va shaxsiy ko'nikmalarni tuzatish tamoyili. O'qitishning tizimliliigi, O'qitishning kontekstliliigi. Ta'lim natijalarini dolzarblashtirish tamoyili. Ta'limning eektivligi tamoyili. Reflektivlik tamoyili. Ta'lim natijalarining ta'lim oluvchining amaliy faoliyati tomonidan talab qilinganligi tamoyili. Ta'limning tizimliliigi tamoyili. Ta'lim oluvchining rivojlanish tamoyili.

Ta'limiy ehtiyojlarni rivojlantirish tamoyili. Ta'limning tan olinish tamoyili haqidagi tushunchalarga ega bo'lish.

4-mavzu. Yoshi katta inson-ta'lim subekti sifatida.

Odamni yoshiga ko'ra davrlarga ajratish. Yosh chegaralarini belgilashdagi atamalar. Psixofiziologiyada xronologik va biologik yoshning farqlanishi.

5-mavzu. Katta yoshdagi aholining ijtimoiy himoyalangan guruhlari ta'limining o'ziga xosliklari.

Aholini ijtimoiy himoyalash ijtimoiy farovonlik profilaktikasi chora-tadbirlari tizimi sifatida. Ta'lim katta yoshdagi kishilarni ijtimoiy himoyalash omili sifatida. Ta'lim sohasida ijtimoiy qo'llab-quvatlashga ehtiyoj sezuvchi ijtimoiy guruhlar: oliy ta'lim bitiruvchilari, mehnatga layoqatli nogironlar, ishsizlar, yollanib ishlovchi kishilar, ozodlikka chiqqan kishilar. Ta'limning maxsus turlari tashkilotchilari: O'zbekiston Respublikasi mehnat va bandlikni ta'minlash vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, nodavlat ta'lim muassasalari, nodavlat notijorat ta'lim tashkilotlari.

6-mavzu. Ishsizlarni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash.

Ishsizlarni kasbiy qayta tayyorlashni tashkil etish va mazmuni. Aholining bandligini ta'minlash xizmatiing ishsizlarni kasbiy qayta tayyorlashdagi roli. Ishsizlarni kasbiy qayta tayyorlashni tashkil etish va mazmuniga ta'sir etuvchi omillar: ijtimoiy-demografik, shaxsiy, mehnat, bozori ehtiyojlar. "Ikkinchi marta

ishsizlik” tavsifi. Ishsizlarta’lim subekti sifatida. Kasbiy qayta tayyorlashning vazifasi- yangi kasbni egallash motivatsiyasini shakllantirish. Ishsizlikni qayta tayyorlashning ikki guruh maqsadlari tizimi: birinchi guruh-kasbiy ko’nikma va malakalarning minimum talabini shakllantirish, faoliyatning yangi usullarini o’zlashtirishga tayyorgarlikni shakllantirish, yangi ish joyiga mutaxassisni adekvat tayyorlashni ta’minlash. Ishsizlarni o’qitishga doir andragogik yondoshuvlar. Ishsizlar ta’limi mazmuni bloklari: diagnostik. Ijtimoiy-psixologik, texnologik, kommunikativ, lingivistik, axborot, moliyaviy -huquqiy, kreativ, valeologik.

7-mavzu. Katta yoshdagi nogironlarning maxsus ta’limi.

Nogironlarning hayotida ta’limning o’rni va funksiyalari. Katta yoshli nogironlarni ta’limni tashkil etish tamoyillari: insonparvarlik, rivojlanish, hamkorlik, adaptivlik. Katta yoshdagi nogironlar ta’limining variativ modellari. Katta yoshdagi nogironlar ta’limi funksiyalari: kompensatorlik, korreksion, qo’llab-quvatlovchi. Katta yoshdagi nogironlar ta’limi tizimida andragogning vazifalari. Kompleks qiyinchiliklarni bartaraf etishda yordam ko’rsatish: ijtimoiy, psixologik, ijtimoiy, ta’limiy, axloqiy. Katta yoshdagi nogironlar ta’limini tashkil etish etish shakllari. Reabilitatsion ta’lim muassasalarining roli. Rasmiy va norasmiy turdagi individual ta’lim dasturlari tavsifi. Telekomunikatsiya va ma’lumotlar bazasi imkoniyatlaridan foydalanish. Internet sinflari bazasida ilmiy axborotlardan nogironlarni foydalanishini ta’minlash. Masofaviy ta’limni rivojlantirish. Katta yoshdagi nogironlarni o’qitishning zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish. Televizion texnologiyalarning imkoniyatlari.

8-mavzu. Andragogik ta’lim jarayonida pedagogik diagnostika va korreksion faoliyatning tashkil etish bosqichlari.

Andragogik ta’lim jarayonida pedagogik diagnostikaning mohiyati va funksiyalari: “Diagnostika” tushunchasi va pedagogik diagnostikaning o’ziga xosliklari. Andragogik ta’lim jarayonida pedagogik diagnostika obektlari: ta’lim oluvchi shaxsi pedagogic obekti sifatida. Diagnostik tadqiqotlarning tuzilishi: diagnostik tadqiqotlarning semiotic, texnik va mantiqiy aspektlari; pedagogic tafakkurning mohiyati va o’ziga xosliklari. Andragogikada korreksion faoliyat va tashkil etish bosqichlari.

9-mavzu. Kattalar ta’limining adaptiv tizimi.

Kattalar ta’limining adaptiv xususiyatlari. Kasbiy moslashuv turlari: psixologik, tashkiliy, mazmunli, texnologik, nazorat baholash. Kattalar uchun

“adaptive ta’lim” tushunchasi. Kechki ta’lim. Kechki ta’lim shakllari. Kechki ta’lim o’quv dasturlari tavsifi. Sirtqi ta’lim. O’quv maslahat markazlarining roli. Eksternat ta’lim shakli sifatida. Eksternat tartibda ta’lim oliy shakllari: individual, guruhiiy, aralash va ularning tavsifi. Ta’lim oluvchilarni mustaqil bilim olishga tayyorlash texnologiyasi. Andragog-pedagog modeli: informativ tashkiliy, faoliyatga doir, faol mustaqil ta’lim faoliyati.

10-mavzu. Katta ta’limini tashkil qilishning shakl va metodlari.

Katta ta’limini tashkil qilishning shakllari. Kattalar ta’limini tashkil etishning metod va usullari.

11-mavzu. Andragogikada o’quv jarayonini loyihalash.

Andragogikada o’quv jarayonini loyihalash. Andragogikada o’quv jarayonini rejalashtirish.

12-mavzu. Katta yoshlilarni uzluksiz ta’limi masalasi.

Uzluksiz ta’lim tizimida kattalar masalasi.

13-mavzu. Modulli ta’lim yoshi kattalarni o’qitishning texnologik shakli sifatida.

Oliy ta’lim muassasalarida “Modulli ta’lim” texnologiyalarining paydo bo’lishi. O’quv yurtlarida ayrim predmetlarni modulli o’qitishdan, kompleks kasbga tayyorlash tizimini o’z ichiga oluvchi integrallashgan modulli usulga o’ta boshlashi.

14-mavzu. Kattalarni o’qitishda masofaviy ta’lim texnologiyalari.

Kattalarni o’qitishda masofaviy ta’lim texnologiyalari. Masofaviy ta’lim tizimi, zamonaviy axborot texnologiyalari. Hozirgi kunda masofali o’qitish shakllarining yo’lga qo’yilishi. Masofaviy ta’lim tushunchasi. Axborot va telekommunikatsion texnologiyalar. Masofaviy o’qitish interfaol ta’lim sifatida. Masofaviy ta’lim tuzilmasi. Masofaviy ta’lim subektlari. Masofaviy ta’lim tamoyillari va modeli. Masofaviy ta’limning didaktik xususiyatlari. Ta’lim metodlari. Masofaviy ta’lim vositalari. O’zbekistonfa masofaviy ta’limning rivojlanishi.

15-mavzu. Kattalar ta’limida interaktiv metodlar va o’yin texnologiyalari.

Interaktiv metodlar va ularning o’ziga xosliklari. Kattalar ta’limida interaktiv metodlarni tanlash va ularni qo’llash. Kattalar ta’limida

foydalaniladigan interaktiv metodlar haqida. Kattalar ta'limida o'yin texnologiyalarini qo'llash. Kattalar ta'limida kommunikativ o'yinlar va ulardan foydalanish.

III. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlarida talabalarda nazariy o'zlashtirilgan bilimlar mustahkamlanadi.

“Androgogika asoslari” fani bo'yicha seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Andragogika fanining predmeti, maqsad va vazifalari.
2. Andragogik ta'lim muhitiga kirish.
3. Andragogikaning asosiy tamoyillari.
4. Yoshi katta inson ta'lim subekti sifatida.
5. Katta yoshdagi aholining ijtimoiy himoyalanmagan guruhlari ta'limining o'ziga xosliklari.
6. Ishsizlarni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash.
7. Katta yoshdagi nogironlarniing maxsus ta'limi.
8. Andragogik ta'lim jarayonida pedagogik diagnostika.
9. Andragogik korreksion faoliyatni tashkil etish.
10. Kattalar ta'limining adaptiv tizimi.
11. Kattalar ta'limini tashkil qilishning shakl va metodlari.
12. Andragogikada o'quv jarayonini loyihalash.
13. Modulli ta'lim- Yoshi kattalarni o'qitishning texnologik shakli sifatida.
14. Kattalarni o'qitishda masofaviy ta'lim texnologiyalari.
15. Kattalar ta'limida interaktiv metodlar va o'yin texnologiyalari.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim mazmuni ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlar mavzulari asosida shakllantiriladi. Biroq mustaqil ta'lim ko'proq ma'ruza va seminar mashg'ulotlarida o'rganilmagan masalalarni o'z ichiga oladi. Mustaqil ta'lim asosida o'qib o'rganilgan masalalar fan bo'yicha oraliq va yakuniy nazorat ishlari savollarida o'z aksini topadi.

Mustaqil ta'limni tayyorlashda mazkur fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha mavzularni konspektlashtirish;
- adabiyotlar asosida referat yozish;
- kitob va maqolalarga annotatsiya yozish;
- internet tarmog'idan axborotlar izlash va tahlil etish.

“Androgogika asoslari” fani bo'yicha tavsiya etiladigan mustaqil ta'limning mavzulari:

1. Andragogika fanining predmeti, maqsad va vazifalari.

	2.Andragogika fanining shakllanish tarixi. 3.Andragogika fanining boshqa fanlar bilan aloqasi. 4.Andragogikaning asosiy tamoyillari. 5. Kattalar ta'limini tashkil qilishning shakl va metodlari. 6.Kattalarni o'qitish tizimida Malaka oshirish va qayta tayyorlash muassasalari. 7.Katta yoshdagi ta'lim oluvchilarning xususiyatlari. 8.Ayollarni o'qitishning xususiyatlari. Ayollarni ijtimoiy-psixologik portreti. 9.Ishsizlarni o'qitish. 10.Ishsizlar bilan o'quv jarayonini tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari. 11. Imkoniyati cheklangan katta yoshlilarni o'qitishning alohida xususiyatlari. 12. Imkoniyati cheklangan katta yoshlilarni o'quv jarayonini tashkil qilishning xususiyatlari. 13. "Muammoli" tinglovchilar bilan ishlash. 14. Andragogning kasbiy va shaxsiy sifatleri. 15.Andragogning kasbiy etikasi. 16. Katta yoshdagi ta'lim oluvchilarni psixologik-andragogik tashxis tamoyili. Ta'limni individuallashtirish. 17. Andragogik ta'lim jarayonida o'lchash va shkalalashning asosiy yo'nalishlari. 18. Andragogikada korreksion faoliyatni tashkil etish bosqichlari. 19. Andragogikada korreksion faoliyatning umumpedagogik metodlari. 20. Andragogik ta'limda diagnostik-korreksion tadbirlarni o'tkazishga qo'yiladigan tashkiliy- pedagogik talablar.
3.	V. Fanni o'qitishning natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba quyidagi kompetensiyalarga ega bo'ladi: • andragogikaning ilmiy asoslari, pedagogik andragogika va kattalar ta'limini to'g'risidagi tasavvurga ega bo'lishi (bilim) • pedagogik andragogika, kattalar ta'limiga doir o'qitish tamoyillarini o'zlashtirishi amalyotda foydalanish olishi (ko'nikma). • Andragogic diagnostika va korrektsiya ishlarini tashkil eta olish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak (malaka).
4.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • interfaol ma'ruza va seminar mashg'ulotlarini tashkil etish texnologiyasi; • modulli ta'lim texnologiyasi; • muammoli ta'lim texnologiyasi; • kooperativ ta'lim texnologiyasi;

	• refleksiv ta'lim texnologiyasi; • art-texnologiyalar; • veb-kvest; chizma-tasviriy metodlar (mantiqiy grafika, freym modeli, tayanch konspekt, semantik tarmoq, intellekt karta.
5.	VII. Kreditlarni olish uchun talabalar: • ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda muntazam qatnashish: munozaralar va o'quv konferentsiyasida ishtirok etish; tayanch konspektlar tuzish; • joriy va oraliq nazorat topshiriqlarini bajarish; • mustaqil ish topshiriqlarini bajarish; • yakuniy nazorat topshirish.
6.	Asosiy adabiyotlar: O'.M.Asqarova, M.A. Abdullaeva, M.Boltaeva "Andragogika" (o'quv qo'llanma) Namangan-2014 2.Devid Kolb "Kattalarni o'qitish shakli" uslubiy qo'llanma.2014 yil. 3.S.Zmeyov va B.A.Drevyannikov. "Kattalarni o'qitishning asosiy tamoyillari" uslubiy qo'llanma.2016yil. 4.E.Foziyev, K.Mamedov, "Kasb psixologiyasi", Toshkent, Sharq, 2003. Qo'shimcha adabiyotlar: 1.O'zbekiston Respublikasining «Ta'im to'g'risida» gi qonuni. 2020 yil 23 senyabr. 2.Zmeev S. I. Andragogika: Stanovlenie i puti razvitiya //Pedagogika. — 1995 .- №2. 3. A.X. Abdullaev, N.S.Raximov, M, O, Xadaev Katta yoshdagilami o'qitish markaziga: qadam-baqadam T;" CHASHMA" -2013. Internet manzili: 1.https://zamin.uz/uz/jamiyat/80087-pedagogika-va-andragogika-tushunchalari-va-uv-motivacijas-omillari.html 2. https://cs.wikipedia.org/wiki/Andragogika 3.https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/05/31/NamDU-ARM-2820-Andragogika_.pdf 4.https://staff.tiame.uz/storage/users/167/presentations/rreWTxSSr9MiC0W5cxbHv6InKG1gcSU9MDqkaStf.pdf 5.https://staff.tiame.uz/storage/users/167/presentations/TvyEbD5xArdCCJ9v5CISuTeucxEqw8BcDRnN65Ye.pdf

7.	Fan dasturi Qo‘qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2025-yil 30-avgustdagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan
8.	Fan/modul uchun mas‘ullar: 1.Yuldasheva Malohat Erkinovna - “Pedagogika” kafedrası katta o‘qituvchisi PhD. 2. U.Yuldoshev- Qo‘qon DU “Pedagogika” kafedrası dotsenti
9.	Taqrizchilar: 1.Tolipova Ozoda Ikromovna-“Pedagogika” kafedrası katta o‘qituvchisi PhD. 2. G‘aniyeva Muborak Adilovna - Qo‘qon universiteti Ta‘lim kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi